
HAMISHA E'ZOZDASIZ, AZIZ AYOLLAR!

Tumanimizdagi "Turon" tantanalar majmuasida 8 mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni bayrami munosabati bilan tumanimiz taraqqiyoti, turmushimiz obodligi va xalqimiz farovonligini yuksaltirishda hissalarini qo'shayotgan xotin-qizlarni, o'zlarining kasbiy mahorati va namunali hayot yo'li bilan barchaga o'rnak bo'lgan fahriy ayollarni sharaflash, ularni rag'batlantirish maqsadida bayram tadbiri tashkil qilindi. Ushbu tadbirga samarali va faol mehnat qilgan ayollar va qizlarimiz taklif etildi.

Tadbirni tuman prokurori A.Xudoyberganov va tuman hokimligi vakili O'.Karimovlar ochib, yig'ilganlarni bayram bilan muborakbod etishdi. Tadbir avvalida tuman hokimi Sh.Abdusalomovning tumanimizdagi xotin-qizlarga bayram munosabati bilan yo'llagan tabrigi o'qib eshittirildi.

Shuningdek, tuman hokimligi vakillari tomonidan kuni kecha "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoni bilan taqdirlangan Zebixon Rustamova, 21-maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyachisi Tatyana Makarovna, "Eng namunali fermerlar oilasi" tanlovi g'olibi bo'lgan Mehnatobod mahalla fuqarolar yig'ini raisi o'rinbosari Muqaddamxon Mamadaliyeva hamda bir qator faol xotin-qizlarga fahriy yorliq va esdalik sovg'alari topshirildi.

Tadbirda so'zga chiqqan faollar mamlakatimizda, xususan tumanimizda xotin-qizlarga berilayotgan e'tibor, yaratilayotgan shart-sharoitlar haqida to'xtalishib, tumanimizning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida bilim va salohiyatlarini ayamasliklarini ta'kidlab o'tishdi.

Bayram dasturi tuman madaniyat bo'limi va "Rayhon" ashula va raqs xalq dastasining xushovoz xonandalari ijrosidagi kuy-qo'shiqlar va munis ayollar, lo'bar qizlarning sho'x-shodon raqslari bilan yanada zavqli o'tdi.

Toshloq tumani hokimligi Axborot xizmati.

2020-03-07 15:43:10